Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320911

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

mumkin. Milliy va xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, bu borada qo'llaniladigan siyosat va chora-tadbirlar iqtisodiyotning barcha sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, tadbirkorlikni rivojlantirish va uning imkoniyatlarini kengaytirish har bir davlatning iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish va unga ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotning turli sohalarini faollashtirish va aholi daromad darajasini oshirish bilan birga, kambag'allikni kamaytirish va jamiyatning umumiy farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish vazirligi. https://gov.uz/oz/bv/news/view/22543 24.09.2024
2. O'zbekiston Respublikasi Prezident matbuot xizmati https://demokrat.uz/2024/01/08/ozbekistonda-rasmiy-ishsizlik-darajasi-malum-qilindi 8.01.2024
3. Bandlik vazirligi kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/07/poverty/ 7.10.2024
4. G'oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. Monografiya. - Toshkent. "Fan" nashriyoti, 2005 yil, — B. 12.
5. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conferencye Zone. – 2022. – S. 129-133.
6. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conferencye Zone. - 2022. -S. 129-133.
7. Kazakov O.S. Menejmentga kirish. Darslik. Toshkent. -Fan ziyosi- nashriyoti, 2021 y.

BUXORO VILOYATIDA AGROSANOAT MAJMUASINI KLASTERLASH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Shamsiyeva Mohigul Olimjon qizi
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

So'nggi yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi kabi sanoatning paxta-to'qimachilik kichik tarmog'ida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Innovatsiyalar va investitsiyalarni jalb qilish, kelajakda ushbu tarmoqni xalqaro raqobatga chidamli, yangi chaqiriqlarga tez moslashuvchi va barqaror o'suvchi tizimga aylantirish imkonini beradi. Shu bois agrosanoat majmuasida, xususan, paxta-to'qimachilik klasterlarida zamonaviy boshqaruv usullari va samarali boshqaruv mexanizmlarini qo'llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

2018-2023 yillar statistik ko'rsatkichlari bir gektardan olinadigan paxta hosildorligi 26 sentnerdan 34 sentnergacha oshganligi, ayrim viloyatlarda 40 sentnergacha yetganini ko'rsatmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev klasterlardagi yutuqlar haqida gapirar ekan, paxta tolasini qayta ishlash hajmi 2,5 barobarga oshib, 100 foizga yetganini, ip-kalava ishlab chiqarish 2,2 barobarga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish esa 5 barobarga ko'payganini qayd etdi. [1]

Professor M.A. Rahmatov respublikamizda barcha yo'nalishda faoliyat yuritayotgan klasterlar soni 510 taga yetib, shundan qariyb 100 tasi paxta-to'qimachilik

Published: 23.12.2024
Cite this article: Shamsiyeva Mohigul Olimjon qizi (2024). Buxoro viloyatida agrosanoat majmuasini klasterlash strategiyasini takomillashtirish yo'nalishlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320911
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

bo‘yicha faoliyat ko`rsatishini ta’kidladi. Klasterlar amaliyotga ilm-fan yutuqlari va innovasiyalarni izchil qo‘llayotgani tufayli paxtachilikda hosildorlik bir yil ichida o‘rtacha 10 foizga oshdi. Bugungi kunda paxta yetishtiriladigan maydonlarning 32,5 ming gektarida suvni tejovchi texnologiyalar joriy etilgan bo‘lsa, shundan 21 ming (65 foiz) gektari klasterlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Klasterlarda 550 ming tonna kalava ip, 204,5 million kvadrat metr gazlama, 54,5 ming tonna mato to‘qish, 69 ming tonna matoni bo‘yash hamda 218,6 millionta tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvatlari mavjud. Klasterlar tomonidan 2018 — 2020 yillarda paxta xom ashyosini yetishtirish va uni qayta ishlashni tashkil etish bo‘yicha loyihalar doirasida jami 145,7 mingta, birgina 2020 yilda esa 87,2 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. 2020 yilda 18 ta klaster tomonidan paxtani chuqur qayta ishlash bo‘yicha qiymati 774 milliard so‘mlik 29 ta investisiyaviy loyiha ishga tushirildi [2]. Shu bilan birgalikda, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini samarali tashkil etishda hal qilinishi lozim bo‘lgan tizimli muammolar hamda to‘liq ishlatilmagan zaxiralar mavjud, davlat tomonidan mavjud tartibga solish mexanizmlari yuqoridagi va boshqa dolzarb muammolarni samarali hal etishga imkon bermayapti.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning klaster strategiyasini yanada takomillashtirish, uzoq muddatli istiqbolda mintaqani rivojlantirish uchun avvalambor, uning me’yoriy-huquqiy hujjatlarida klaster boshqaruvi tamoyillarini belgilash, loyihalarni amalga oshirayotgan hududning boshqa mintaqalar tajribasidan foydalanish zarurligini inobatga olish kerak. Eng asosiy masala klasterlar va klasterlash to‘g‘risida qonun qabul qilinishi kerak. Ushbu qonunda o‘z aksini topishi kerak bo‘lgan bo‘lgan masalalar va bo‘limlar quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak, deb o‘ylaymiz. O‘zbekistonda klasterlar va klasterlar to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi ham milliy darajada, ham mintaqaviy darajada iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu qonunda aks ettirilishi kerak bo‘lgan asosiy masalalar va bo‘limlar 1- jadvalda keltirilgan.

1-jadval

“O‘zbekistonda klasterlar va klasterlar to‘g‘risida”gi qonun loyihasi

Bo‘limlar	Asosiy masalalar
Ta’riflar va asosiy tushunchalar	- "klaster", "klasterlash" va tegishli atamalarning aniq ta'riflari; - har xil turdagi klasterlar (sanoat, innovatsiya, xizmat ko‘rsatish va boshqalar) o‘rtasidagi farqlar;
Qonunning maqsadlari	- klasterlarni tashkil etishning asosiy maqsadlari (masalan, samaradorlikni oshirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish); - klasterlash orqali erishilishi kerak bo‘lgan aniq vazifalar (masalan, hamkorlikni rag‘batlantirish, bozorga kirishni yaxshilash);
Klaster tuzilmasi va ishtirokchilari	- manfaatdor tomonlarni aniqlash (korxonalar, ilmiy muassasalar, davlat organlari); - klasterdagi har bir ishtirokchining roli va majburiyatlari;
Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari;	- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shakllari (moddiy rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari, texnik yordam); - klaster rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan dasturlar;
Klasterlarni yaratish va ulardan foydalanish;	- klasterlarni tashkil etish tartiblari; - klasterlarning samaradorligi va hayotiyligini baholash mezonlari;

Infratuzilmani rivojlantirish;	- zarur infratuzilmaga qo‘yiladigan talablar (logistika, ilmiy markazlar, inkubatorlar); - ushbu infratuzilmani qurish va saqlashni qo‘llab-quvvatlash;
Ta'lim va mehnat resurslarini rivojlantirish;	- klaster ishtirokchilari uchun trening dasturlari; - malaka oshirish bo‘yicha ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish;
Monitoring va baholash;	- klaster faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari; - samaradorlik ko‘rsatkichlari va muvaffaqiyatni baholash mezonlari;
Xalqaro hamkorlik;	- xalqaro hamkorlik va bilim almashish imkoniyatlari - global klaster tashabbuslarida ishtirok etish;
Huquqiy va me'yoriy asos;	- klasterlar doirasida intellektual mulkni himoya qilish; - klaster a’zolari o‘rtasida halol raqobatni ta’minlashga qaratilgan nizom;
Barqarorlik va innovatsiya;	- klasterlar doirasida barqaror amaliyotlarni rag‘batlantirish; - innovatsion loyihalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash;
Hamjamiyat ishtiroki;	- klasterni rivojlantirishga mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish; - klaster ishtirokchilari o‘rtasida ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlash strategiyalari.

Klasterlarni rivojlantirishni tartibga soladigan amaldagi me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq, klasterlarni ko‘paytirish, ularning huquqiy va qonuniy maqomini kengaytirish zarur. Buxoro viloyatining agrosanoat majmuasida, shu jumladan, paxta-to‘qimachilik tarmog‘ida klasterlashtirish strategiyasini takomillashtirish bir nechta asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi mumkin. (1- rasm)


1. Klasterlarni yaratish va rivojlantirish
- klasterlarni shakllantirish: mintaqadagi asosiy ustivorliklar, mavjud ishlab chiqarish zanjirlari, resurslari va texnologik salohiyatlar asosida klasterlarni aniqlash va yaratish;
- klasterlarni shakllantirish: mintaqadagi asosiy ustivorliklar, mavjud ishlab chiqarish zanjirlari, resurslari va texnologik salohiyatlar asosida klasterlarni aniqlash va yaratish;
2.Xalqaro hamkorlik
- eksport strategiyalari: xalqaro bozorlarga chiqish strategiyalarini ishlab chiqish;
- xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik: tajriba va texnologiyalarni almashish maqsadida xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish;
3. Innovatsiyalarni joriy etish va texnologik yuksalish
- yangi texnologiyalarni joriy etish: ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish va logistika sohalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantirish;
- tadqiqot va ishlanmalar: yangi materiallar va jarayonlarni ishlab chiqish uchun ilmiy muassasalar bilan hamkorlik;
4. Ta'lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash
- kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: soha xodimlari uchun o‘quv dasturlarini, jumladan, yangi texnologiyalar va menejment bo‘yicha kurslarni ishlab chiqish;
- stajirovka va amaliyot: talabalarning klaster korxonalarida amaliyot o‘tashlarini tashkil etish;
5. Infratuzilmani rivojlantirish
- texnoparklarni yaratish: startaplar va innovatsion kompaniyalar uchun infratuzilmani ta'minlash;
- logistika va transport: xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun ta'minot zanjirlarini optimallashtirish;
6. Marketing va sotish
- bozor tahlili: iste'molchilarning ehtiyojlari va afzalliklarini aniqlash uchun marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- brend yaratish: klaster mahsulotlari uchun yagona brendni ishlab chiqish, bu uning bozordagi tan olinishini oshiradi;
7. Davlatning qo’llab-quvvatlovi
- moliyaviy vositalar: klaster ishtirokchilari uchun moliyalashtirish va subsidiyalash dasturlarini yaratish;
- tashkiliy mexanizmlar: klaster ishtirokchilarining o’zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish va integrasiyalashuvini chuqurlashtirish shart-sharoitlarini yaratish;
- huquqiy qo‘llab-quvvatlash: klasterlar rivojlanishiga ko‘maklashuvchi qonunchilik tashabbuslarini rivojlantirish;
8. Barqarorlik
- ekologik amaliyot: barqaror ishlab chiqarish usullarini joriy etish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish;
- ijtimoiy mas'uliyat: mahalliy aholini qo'llab-quvvatlash va hududlarda ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish.

1-rasm. Paxta-to‘qimachilik tarmog‘ida klasterlashtirish strategiyasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.

Klasterlash strategiyasi mintaqaviy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va uni innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazishda harakatlantiruvchi omil bo‘lishi mumkinligini hisobga olib, sohani tubdan qayta qurishga qaratilgan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bizningcha, strategiyani amalga oshirish dasturi uzoq muddatlarni ko‘zlashi kerak, masalan, kamida 5 yil muddatga klasterni rivojlantirishning strategik maqsad va vazifalariga asoslanishi kerak. Strategiyani amalga oshirish dasturidan kelib chiqqan holda, shuningdek, klaster faoliyatining batafsil rejasini ishlab chiqish, unda muddatlar, mas'ul shaxslar va ijrochilar ko‘rsatilishi kerak.

O‘zbekiston agrosanoat tarmog‘ida klasterlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, agrosanoatga sarmoya kiritishni rag‘batlantirish, fermerlar va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks davlat siyosatini ishlab chiqish zarur. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, klasterlashtirish agrosanoat majmuasini modernizatsiya qilish va uning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirishning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Тадбиркорлик ривожини янада юксак босқичга кўтариш – устувор вазифамиздир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз тадбиркорлари билан очиқ мулоқот шаклида ўтказилган учрашувдаги нутқи. 18.08.2023. https://president.uz/uz/lists/view/6561

2. Халқ сўзи (online). "Локомотив"лар, "вагон"лар, рельсларга "лом" тиқадиганлар — улар кимлар? Кластерларнинг тараққиётдаги аҳамияти ҳақида батафсил суҳбат. Саид РАҲМОНОВ, («Халқ сўзи») суҳбатлашди. 25 Февраль 2021 й. https://xs.uz/uzkr/post/lokomotivlar-vagonlar-relslarga-lom-tiqadiganlar-ular-kimlar-klasterlarning-taraqqiyotdagi-ahamiyati-haqida-batafsil-suhbat

3. Bergman E. M. Industrial and Regional Clusters :Concepts and Comparative Applications / E. M. Bergman, E. J. Feser. – 1999. – URL: http://www.rri.wvu.edu/WebBook/Bergman-Feser/contents.htm

4. Breschi, S., & Malerba, F. (2001). The geography of innovation and economic clustering: some introductory notes. *Industrial and Corporate Change*, 10(4), 817-833.

5. Delgado, M., Porter, M. E., & Stern, S. (2014). Clusters, convergence, and economic performance. *Research Policy*, 43(10), 1785-1799.

6. Enright, M. J. (2003). Regional clusters: What we know and what we should know. *Innovation Clusters and Interregional Competition*, 99-129.

7. Feser, E. J., & Bergman, E. M. (2000). National industry cluster templates: A framework for applied regional cluster analysis. *Regional Studies*, 34(1), 1-19.

8. Marshall A. (1920). _Industry and Trade: A Study of Industrial Technique and Business Organization; And of Their Influences on Economic Progress_. Macmillan.

9. Porter M.E. (1998). Clusters and competition: New agendas for companies competitors & regions. In G.L. Clark & M.P. Feldman (Eds.), _The Oxford Handbook of Economic Geography_ (pp. 198-216). Oxford University Press.

Porter, M. E. (1998). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press. Pp 138-142